

ZAMONAVIY BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LI

Mallaxanov Javohir mallaxanovj@gmail.com

Ibragimova Gulira'no Ibragimovagulirano86@gmail.com

Abdukarimov Sherzod

Guliston davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va audit 75-23-guruh talabalari.

Anotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekistonda zamonaviy boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish masalalari, mavjud muammolar va ularning amaliy yechimlari yoritilgan. Boshqaruv hisobi xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik rejalashtirish, xarajatlarni nazorat qilish va foydalilikni oshirish vositasi sifatida qaraladi. Ishda O'zbekiston korxonalari tajribasi, amaliy misollar hamda raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshqaruv hisobi, moliyaviy tahlil, raqamli texnologiyalar, xarajatlar nazorati, foyda, menejment, ERP tizimi, avtomatlashtirish, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv hisobi korxona faoliyatini samarali rejalashtirish va nazorat qilishning asosiy vositasiga aylanmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarga yaqinlashtirilayotgani kabi, boshqaruv hisobi tizimini ham takomillashtirish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda tezkor axborot almashinuvi, xarajatlar tahlili va foyda rejalashtirishning aniqligi muhim ahamiyatga ega.

Boshqaruv hisobi korxonaning ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni shakllantiradi. O'zbekistonda ko'plab korxonalarda boshqaruv hisobi hali ham an'anaviy shaklda yuritilib, avtomatlashtirish darajasi pastligicha qolmoqda. Bu esa moliyaviy axborotning kechikishiga, tahlilning to'liqligini pasayishiga olib keladi.

Masalan, ba'zi ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar hisobi va rejalashtirish jarayoni hali ham qo'lda yoki Excel dasturi yordamida amalga oshiriladi. Bu esa mahsulot tannarxini tezkor aniqlashda qiyinchilik tug'diradi, hamda ishlab chiqarish rejasini moslashtirish imkonini cheklaydi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini keng joriy etish zarur. Bu tizim yordamida ishlab chiqarish, moliyaviy, va buxgalteriya axborotlari yagona ma'lumotlar bazasida jamlanadi. Natijada, rahbariyat real vaqt rejimida xarajatlar va foydani tahlil qilib, tezkor qarorlar qabul qila oladi. Bugungi kunda yuritilayotgan ba'zi boshqaruv hisobi esa Yevropa davlatlarida shakllangan amaliyotlardan kelib chiqqan. Amaliyotdagi boshqaruv hisobining funktsiyalari oddiy ishlab chiqarish

hisobidan ancha kattaroqdir. U birinchi navbatda, maxsulotlar tannarxini aniqlash, rejalashtirish, byudjetlashtirish, sub'ekt tarkibiy qismlari bo'yicha hisobni tashkil etish, nazorat qilish va axborotlarin taqdim etish kabi vazifalarni bajaradi¹⁰.

Yo'nalish	Tavsifi	Natijasi
1. ERP tizimini joriy etish	Axborotlarni yagona bazada birlashtirish	Qaror qabul qilish tezligi oshadi
2. Xodimlarni qayta tayyorlash	Boshqaruv hisobi va IT ko'nikmalarini rivojlantirish	Hisob va tahlil sifatining yaxshilanishi
3. Xarajat markazlari bo'yicha tahlil	Bo'limlar kesimida xarajatlarni aniqlash	Samarali nazorat tizimi shakllanadi
4. Sun'iy intellekt (AI) asosidagi tahlil	Moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash	Foydalilik va raqobatbardoshlik ortadi
5. Elektron hisobot tizimlari	UZASBO, GFMIS bilan integratsiya	Shaffoflik va aniqlik ta'minlanadi

Jadval: Boshqaruv hisobi samaradorligini oshirish yo'nalishlari¹¹

Zamonaviy boshqaruv hisobini takomillashtirish yo'lida Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni mamlakatda raqamli infratuzilmani yangilash va moliyaviy tizimda raqamli xizmatlarni keng joriy etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni boshlab berdi. Ushbu islohotlar natijasida iqtisodiy boshqaruv jarayonlarida, xususan, boshqaruv hisobini modernizatsiya qilishda yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda¹². Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi boshqaruv hisobining asosiy maqsadi – menejerlarga tezkor, aniq va ishonchli ma'lumot yetkazib berish – jarayonini yanada samarali tashkil etishga zamin yaratmoqda. Bugungi kunda raqamli infratuzilma, ya'ni internet qamrovi, telekommunikatsiya tarmoqlari va axborot xavfsizligi tizimlari boshqaruv hisobining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Xususan, 5G texnologiyalarining joriy etilishi, "MyID" kabi yagona raqamli identifikatsiya

¹⁰ Аткинсон Э.А. Управленческий учет./ Э.А. Аткинсон, Р.Д. Банкер, Р.С.Каплан,; Пер. с англ.-М.: Изд. дом«Вильямс», 2016.880 с

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹² <http://lex.uz/ru/docs/-503095> PF-6079-son

tizimlarining ishga tushirilishi, davlat xizmatlarini to'liq onlayn formatga o'tkazish jarayonlari boshqaruv hisobi axborot tizimlarini avtomatlashtirishga bevosita xizmat qilmoqda. Natijada ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy operatsiyalar va soliq ma'muriyati jarayonlari raqamli boshqaruv vositalari orqali real vaqt rejimida tahlil qilinmoqda. Zamonaviy boshqaruv hisobini takomillashtirish yo'lidagi eng muhim yo'nalishlardan biri – bu sun'iy intellekt va "Big Data" texnologiyalarini joriy etishdir. Ular yordamida korxonalar xarajatlarni optimallashtirish, foyda marjasini tahlil qilish, investitsion qarorlarni asoslash kabi vazifalarni avtomatik tarzda bajarish imkoniga ega bo'lmoqda.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi O'zbekistonda zamonaviy boshqaruv hisobini takomillashtirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Kelajakda boshqaruv hisobi raqamli yechimlarga tayanib, iqtisodiy tahlil va rejalashtirishda strategik ahamiyat kasb etadigan tizim sifatida yanada rivojlanadi.

Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini rivojlantirishning yana bir yo'nalishi "to'liqsiz tannarx" usuli yoki "Direkt-kosting" deb nomlangan tannarxni hisobga olish va tannarxni hisobga olishni marjinal usulidir. Xarajatlarni hisobga olishning ushbu usuli amerikalik iqtisodchi Jonatan Xarrison tomonidan taklif qilingan va darhol "to'liq tannarx" usuli tarafdorlari tomonidan tanqid qilingan. "Direkt-kosting" hisoblash tizimi barcha o'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxi bilan, barcha doimiy ishlab chiqarish xarajatlari esa davr xarajatlarida aks ettirilishi bilan tavsiflanadi.

XULOSA

Boshqaruv hisobida bugungi kunda zamonaviy usullarni qo'llash jarayonlari tezlashdi. Bozorlar chegaralari kengayishi va tovarlar assortimentlarining ko'payishi iqtisodiy resurslarga bo'lgan talabning ortishiga va o'z navbatida ulardan foydalanishda yuqori unumdorlikni ta'minlashni talab qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xodimlarni tayyorlash va axborot tizimlarini integratsiya qilish orqali boshqaruv hisobi nafaqat buxgalteriya vositasi, balki strategik boshqaruv asbobiga aylanadi. Kelgusida korxonalar faoliyatida sun'iy intellekt, Big Data va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlaridan keng foydalanish boshqaruv qarorlarini tezkor va samarali qabul qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI <https://zenodo.org/records/17490081>
3. Mirkamalov T.X. 'Boshqaruv hisobi', Toshkent, 2021.
4. Xasanov B. Boshqaruv hisobi: Darslik/ Xasanov B., Xashimov A., Toshkent: Cho'lpon nomidani NMIU, 2013 - 312 b
5. Ergasheva Sh.T., Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: TDIU, 2019. – 180 b